

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rne	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rne	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rne (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳакимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
Toiyrov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	



IQLIM O'ZGARISHLARI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Ashrafjon Elov

PhD, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirini ilmiy-nazariy tahlil qilish zaruriyati, iqlim o'zgarishlarining sabablari, xususan, tabiiy va antropogen omillar tavsifi, iqlim o'zgarishlarini iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga salbiy ta'sirlariga oid ilmiy qarashlar, shuningdek, ushbu sohaning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga oid takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, iqtisodiyot, tizimli ta'sir, jismoniy ta'sir, kam uglerodli iqtisodiyot, tabiiy omil, antropogen omil, sezgirlik, zaiflilik.

Abstract: The article describes the need for a scientific and theoretical analysis of the impact of climate change on the economy, the causes of climate change, in particular natural and anthropogenic factors, scientific views on the negative impact of climate change on economic sectors and regions, as well as proposals for improving the scientific and theoretical foundations of this area.

Key words: climate change, economics, systemic impact, physical impact, low-carbon economy, natural factor, anthropogenic factor, sensitivity, vulnerability.

Аннотация: В статье описаны необходимость научно-теоретического анализа влияния изменения климата на экономику, причины изменения климата, в частности природных и антропогенных факторов, научные взгляды на негативное влияние изменения климата на отрасли экономики и регионы, а также предложения по совершенствованию научно-теоретических основ этой области.

Ключевые слова: изменение климата, экономика, системное воздействие, физическое воздействие, низкоуглеродная экономика, природный фактор, антропогенный фактор, чувствительность, уязвимость.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda global iqlim o'zgarishlari asosan yer sirtida havo haroratining keskin isishi bilan tavsiflanib, uning oqibatlar davlatlar iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda jamiyatlarda ijtimoiy-siyosiy keskinlikni keltirib chiqarishi kuzatilmoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP28)¹ mintaqamizdagi ekologik vaziyatga to'xtalib, "Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi" [1], – deya ta'kidladilar. Iqlim o'zgarishlarining oqibatlari mamlakatimizning har bir fuqarosi hayotida, ayniqsa so'nggi yillarda sezilarli darajada o'z ta'sirini namoyon qilmoqda.

Jahon meteorologiya tashkiloti 2023-yilda Osiyoda o'rtacha harorat "1991–2020-yillardagi o'rtacha ko'rsatkichdan 0,91°C [0,84 °C–0,96 °C] va 1961–1990-yillardagi o'rtachadan 1,87°C [1,81 °C–1,92 °C]ga yuqoriligi"ni[2] qayd etdi. Isish darajasi Osiyo mintaqasida qariyb 2 barobar yuqoriligi mintaq global iqlim o'zgarishlariga eng zaif hudud ekanligini va uning oqibatlari mintaq xalqlari farovonligiga ko'proq salbiy ta'sirli bo'lishini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda anomal issiq va sovuq kunlar, jazirama to'lqinlar, qurg'oqchilik, yer sho'rlanishi, cho'llanish va havo tarkibida zaharli changlar konsentratsiyasining oshishi kabi iqlim o'zgarishlarining bir qator oqi-

1 <https://president.uz/oz/lists/view/6897>



batlari allaqachon kuzatila boshlanib, ular mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga har tomonlama salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazaridan, bugungi kunda global iqlim o'zgarishlarini oldini olish, oqibatlarini yumshatish va unga moslashish choralari ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tadqiq qilish zaruriyatini oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar iqtisodiyoti, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirlarini aniqlash borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqotlar doirasida o'rganilayotgan iqlim o'zgarishlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirlarini yirik 5 ta guruhga ajratish mumkin. Jumladan, iqlim o'zgarishlarining 1) iqtisodiy o'sishga ta'siri [3], 2) jismoniy ta'sirlar natijasida iqtisodiyotga yetkazilgan zararlar [4], 3) mehnat resurslari sog'lig'i va mehnat unumdorligiga ta'sirlar [5], 4) pul-kredit siyosati ko'rsatkichlariga ta'sirlari [6], 5) past uglerodli texnologiyalarga o'tish, moslashish va yumshatish ta'sirlari [7]ga oid mavzular ko'proq o'rganilganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodchi J.Tobey global iqlim o'zgarishlarining ta'sirini iqtisodiy baholash va bu sohadagi tushunchalarni aniqlashtirish "...muammoga qanday javob berish bo'yicha qarorlar ishlab chiqilayotganda tobora muhim element hisoblanishi"ni [8] qayd etgan. Shuningdek, "iqlim o'zgarishi oqibatlarini uzoq muddatda baholash to'liq bo'lmagan ilmiy metodologiyalar va ma'lumotlardagi bo'shliqlar tufayli juda murakkab masala"dir[9]. Darhaqiqat, bugungi kunda global iqlim o'zgarishlarining iqtisodiy ta'sirlariga oid nazariy asoslari to'liq shakllanmagan hamda tadqiq qilish universal metodologiyasi mavjud emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Iqlim o'zgarishi masalalarining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirlarini o'rganishda uning kelib chiqish sabablarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, ushbu mavzuda turli qarashlar mavjudligini kuzatish mumkin.

Jumladan, "global iqlim o'zgarishi" tushunchasi uzoq muddatda harorat va ob-havo sharoitlarining o'zgarishini anglatib, ushbu o'zgarishlar o'n yoki yuz yillar davomida sodir bo'ladi. Ushbu o'zgarishlarga olib keluvchi omillarni quyidagi 2 ta yirik guruhga ajratish mumkin:

1) **tabiiy omillar**, bunda quyosh faolligining o'zgarishi, Janubiy tebranish (El Nino), Shimoliy Atlantika tebranishi (La Nino), yirik vulqonlarning harakatga kelishi yoki ekotizimga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa tabiat hodisalari kuzatiladi.

2) **antropogen omillar**, bunda inson va uning faoliyati tabiatga zarar keltirishi ya'ni tabiiy resurslarni o'zlashtirish, ekotizimlarni yo'q qilinishi, atrof-muhitni ifloslantirish, atmosferaga turli chiqindilarni chiqarilishi, ozon qatlaminig yemirilishi kabi tabiatga jiddiy ta'sirlarni qamrab oladi.

Tabiiy yoki antropogen omillarning birini yuzaga kelishi tabiatda zanjir reaksiyasi kabi boshqa omillarni qo'zg'alishiga olib kelishi ham mumkin. Masalan, "global isish butun dunyo bo'ylab abadiy muzlik hududlarida va kontinental qiyalik cho'kindilarida topilgan metan klatratlarini beqarorlashtirishi" [10] atmosferaga katta miqdorda metan gazini chiqishiga va yanada isishni tezlashishiga hissa qo'shishi mumkin.

Illinoys universiteti olimlari tadqiqotlarida, "iqlim o'zgarishi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan 3 146 tadqiqotchi (geofiziklar, klimatologlar va boshqalar)ning 97% inson faoliyati global iqlim o'zgarishiga hissa qo'shganligi" ni [11] qayd etgan. Shu sababli, iqlim o'zgarishlarining asosiy sababchisi antropogen omillar ekanligi yuzasidan yakdil konsensusga kelingan, – deb xulosa qilish mumkin.

Iqlim o'zgarishlarining ta'sirlari to'g'risidagi ilmiy munozaralarda uning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga ta'sirlari ko'plab ta'kidlansa-da, ushbu ta'sirlar nazariy jihatdan yaxlit tizimlashtirilmagan. Fikrimizcha, iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirlarini nazariy asoslarini shakllantirish zaruriyati mavjud. Shu sababli, ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borildi.

Moliyaviy barqarorlik kengashi (Financial Stability Board)ning 2017-yildagi "Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha ishchi guruhi tavsiyalari" nomli hisobotida iqlim bilan bog'liq iqtisodiyotga



ta'sirlarni 2 ta asosiy toifaga: "1) past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq ta'sirlar va 2) iqlim o'zgarishining jismoniy zararlari bilan bog'liq ta'sirlar" [12] ajratgan. Fikrimizcha, ushbu ikki guruh ta'sirlaridan tashqari, iqlim o'zgarishlarining mamlakat iqtisodiyotiga jismoniy bo'lmagan ta'sirlar, xususan mehnat unumdorligi, hosildorlik, insonlar salomatligiga zararlarni ham alohida guruhlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2023-yildagi iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panelning hisobotida iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq zararlari 1-jadvaldagi kabi tasniflangan. Biroq, ushbu jadvalda keltirilgan iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirlariga oid ma'lumotlar O'zbekiston sharoitiga to'liq mos emas, ular ko'proq qirg'oq bo'yi davlatlar iqtisodiyotiga ta'sirlarni tavsiflaydi.

1-jadval. Iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ta'sir va zararlari [13]

No	Ta'sir guruhlari	Ta'sir obyektlari
1.	Suv mavjudligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish	1. Suvning jismoniy mavjudligi; 2. Qishloq xo'jaligi/o'simlikchilik; 3. Hayvonlar va chorva mollarining salomatligi va mahsuldorligi; 4. Baliqchilik hosildorligi va dengiz mahsulotlarini yetishtirish.
2.	Salomatlik va farovonlik	1. Yuqumli kasalliklar; 2. Issiqlik, to'yib ovqatlanmaslik va yong'indan zarar; 3. Ruhiy salomatlik; 4. Siqilish.
3.	Shaharlar, aholi punktlari va infratuzilma	1. Ichki suv toshqini va u bilan bog'liq zararlari; 2. Sohil-bo'yi hududlarda toshqin/bo'ron sabab bo'lgan zarar; 3. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga zarar; 4. Infratuzilmaga yetkazilgan zarar.
4.	Biologik xilma-xillik va ekotizimlar	1. Er usti ekotizimlari; 2. Chuchuk suv ekotizimlari; 3. Okean ekotizimlari.

Olim I. Makarov "iqlim o'zgarishining jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sirining asosiy yo'nalishlari aniqligi"ni qayd etib [14], ular tarkibini quyidagicha keltirib o'tgan: 1) qishloq xo'jaligi hosildorligining kamayishi; 2) muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, suv toshqini va bo'ronlarning kuchayishi, qirg'oq-bo'yi hududlarning zaifligini oshishi; 3) gidrometeorologik tabiiy ofatlar: toshqinlar, qurg'oqchilik, issiqlik va sovuq to'lqinlar, bo'ronlarning ko'payishi natijasida iqtisodiy zararlarning oshishi, 4) dunyo aholisi salomatligiga bevosita va bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi; 5) demografik va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan toza suv tanqisligini yanada kuchaytirishi; 6) ko'plab ekotizimlarning ishlashiga tahdid solishi; 7) iqlim o'zgarishining bilvosita zarari sifatida zaif mintaqalarda siyosiy vaziyatning beqarorlashishi yoki iqlim qochqinlari sonining ko'payishiga olib keladi. Biz I. Makarovning iqlim o'zgarishi salbiy ta'sir qiluvchi yo'nalishlarni aniqlashga doir fikrlariga qisman qo'shilamiz. Biroq, aholi salomatligi, toza suv, ekotizimlarni iqlim o'zgarishlarining ta'sirlarining bevosita iqtisodiy obyekti sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, nazariy jihatdan ushbu ta'sirlarni O'zbekiston sharoitida bilvosita va bevosita ta'sirlarga ajratish ham ushbu ta'sirlar tarkibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hudud yoki iqtisodiyot tarmoqlarining iqlim o'zgarishlariga bardoshli yoki zaifligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zaif hududlarda iqlim o'zgarishlari, masalan isish darajasi yuqoriroq bo'lganligi bois, iqtisodiy zararlari ham ko'proq kuzatiladi. Rossiyalik olimlarning fikriga ko'ra, "zaiflik tizimning iqlim o'zgarishiga qanchalik sezgirligini va o'zgaruvchan iqlimning salbiy ta'siri (shu jumladan iqlim o'zgaruvchanligi va ekstremal hodisalar) ga dosh bera olmasligini tavsiflaydi" [15]. Ushbu fikrga qo'shilgan holda, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning iqlim o'zgarishlariga sezgirligidan kelib chiqib, ularni **eng zaif**, **zaif** va **kam zaif toifalarga** bo'lish maqsadga muvofiq.

Faoliyati iqlim bilan bevosita bog'liq bo'lmagan iqtisodiyot tarmoqlari iqlim o'zgarishlaridan nisbatan kamroq zarar ko'rsa, ular o'rtasida "eng sezgir va zaiflari qishloq va o'rmon xo'jaligi" [16] hisoblanadi. Ushbu tarmoqlardagi hosildorlik va hatto ayrim qishloq xo'jaligi o'simliklarining o'sa olishi iqlim holatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu sababli, zaif hudud yoki zaif iqtisodiyot tarmoqlari iqlim o'zgarishlaridan eng ko'p zarar ko'rsa, kam zaif toifalarda teskari tendensiya kuzatiladi.

Iqtisodchi N. Sternaning fikriga ko'ra, "iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy va atrof-muhitga ta'siri o'ta mintaqaviy xarakterga ega bo'lib, suv, oziq-ovqat va yashash uchun yaroqli yerlardan foydalanish bo'yicha mojaro-larni keltirib chiqarishi mumkin" [17] deya qayd etgan. Darhaqiqat, iqlim o'zgarishlaridan janubiy davlatlar ko'proq zarar ko'rsa, Rossiya, Skandinaviya mamlakatlari, AQSh va Kanada kabi shimoliy mamlakatlar naf



olishi uning mintaqaviy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, iqlim o'zgarishining iqtisodiy tarmoqlariga **nafliligi bo'yicha foyda va zarar ko'ruvchi tarmoq va hududlarga** ajratish mumkin.

Xususan, shimoliy davlatlar sovuq iqlimning kamayishi, qulay iqlim kunlarining ko'payishi, muz qatlaminin qisqarishi, yerlarda hosildorlikning oshishidan nisbatan foyda ko'radi. Arktikada muzning erishi yangi savdo va transport yo'nalishlarini ochilishiga hamda konlarni ochish xarajatlarini arzonlashishiga imkoniyat yaratadi. O'zbekistonning geografik joylashuvi issiq o'lkalarga to'g'ri kelganligi sababli, uning biror hududini iqlim o'zgarishlaridan foyda ko'ruvchi hudud sifatida tavsiflay olmaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global iqlim o'zgarishlari insoniyatning fundamental ehtiyojlarini qondirish tizimiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlar mehnat resurslarining salomatligi va ish samaradorligi, qishloq xo'jaligida hosildorlik, suv resurslari va yer unumdorligi kabi iqtisodiy rivojlanishning bazaviy asoslariga salbiy ta'siri ko'proq namoyon bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishlarining ushbu ta'sirlari kelgusida jamiyatda qashshoqlik va tengsizlikni kuchayishi, siyosiy nobarqarorlik va aholi o'rtasida mojarolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, bugungi kunda iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'sirining nazariy asoslari to'liq shakllanmagan.

Kelgusida iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'siriga oid nazariy asoslarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida, ushbu sohadagi tushunchalarni quyidagicha tasniflash va ta'riflash taklif etiladi:

1. Iqlim o'zgarishlarini iqtisodiyotga salbiy ta'sirini quyidagi 3 guruh ta'sirlar sifatida tasniflash maqsadga muvofiq:

– kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish ta'sirlari – iqlim o'zgarishini oldini olish, oqibatlarini yumshatish va unga moslashish uchun sarflanadigan mablag'lar natijasida iqtisodiyotga ta'sirlardir. Bunda, ushbu turdagi xarajatlarning asosiy qismini "yashil" iqtisodiyotga o'tishda foydalaniladigan texnologiyalarni yaratish va joriy qilish hamda dunyo bozoridagi o'zgarishlar bilan bog'liq xarajatlar tashkil qiladi. Masalan, Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo 2030-yilgacha har yili davlat ushbu turdagi ta'sirlar uchun yalpi ichki mahsulotining 4%gacha sarmoya kiritishi zarur [18]. Shundan kelib chiqsak, O'zbekiston kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish uchun har yili 3,6 mlrd AQSh dollari atrofida sarmoya kiritishi talab etiladi. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun jiddiy iqtisodiy oqibatlariga egadir.

– iqlim o'zgarishining tizimli ta'sirlari – olinishi lozim bo'lgan daromad yoki mahsuldorlikning iqlim o'zgarishi oqibatida qisman yoki umuman yo'qotilishi natijasida iqtisodiyotga ta'sirlardir. Bularga qishloq xo'jaligida hosildorlikning yo'qotilishi, barcha sohalaridagi mehnat unumdorligining kamayishi natijasida boy berilgan daromad, yo'qotilgan aholi salomatligini ta'minlash uchun sarflar, yerlarning yaroqsizlanishi va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu ta'sirlar birgina mehnat unumdorligi misolida ko'rilsa, haroratning har 1°C ko'tarilishi shaxsning fitnes darajasini 0,255 birlikka kamaytiradi [19]. O'zbekistonda aholining asosiy qismi ochiq havoda (qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish) faoliyat olib borishi hisobga olinsa, ularning har birining mehnat unumdorligini 0.255 birlikka kamayishi mutanosib darajada iqtisodiy o'sishni shu birlikka kamayishiga olib keladi.

– iqlim o'zgarishining jismoniy ta'sirlari – tabiat hodisalari, jumladan suv toshqini, anomal sovuq yoki issiq, tabiiy yong'inlar, bo'ron talafotlari, kuchli yomg'ir yoki qor yog'ishi kabi hodisalar natijasida iqtisodiyot tarmoqlariga yetkazilgan jismoniy zararlardir. Jahon meteorologiya tashkiloti hisobotiga ko'ra, iqlim bilan bog'liq ofatlarning iqtisodiy zarari har o'n yilda 1,5 marotabaga (2010–2019-yillarda 1,5 trillion AQSh dollar) oshmoqda [20]. Shu kabi, O'zbekistonda tabiiy ofatlar har yili o'rtacha 1,4 mln kishiga ta'sir o'tkazib, 3 mlrd dollarga yaqin zarar yetkazishi ma'lum qilingan [21].

2. O'zbekiston sharoitida iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini tarmoq va ko'rsatkichlar kesimida bevosita va bilvosita salbiy ta'sirlar sifatida tasniflash:

– bevosita salbiy ta'sirlar:

- 1) qishloq xo'jaligida hosildorlikning kamayishi;
- 2) barcha tarmoqlarda mehnat unumdorligining pasayishi;
- 3) mehnat resurslari salomatligining yomonlashishi;
- 4) infrastruktura, xususan ekoturizm obyektlarining yaroqsizlanishi;
- 5) iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish va unga moslashish uchun qo'shimcha mablag'lar talab qilinishi;

6) gidrometeorologik tabiiy ofatlar, jumladan respublikamizning sharqiy tog'li hududlarida toshqinlarning ko'payishi, g'arbiy va janubiy hududlarida esa qurg'oqchilik, issiq va sovuq to'lqinlar, bo'ronlarning kuchayishidan iqtisodiy zararlari;

7) Amudaryo va Sirdaryoni suv bilan ta'minlovchi tog' muzliklarining erishining tezlashishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun suv tanqisligi;

8) hududlarning iqlim o'zgarishlariga zaifligining oshishi va boshqalar.



Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti O'zbekistonda 2030-yilga kelib issiqlik stressingining ta'siri sezilarli darajada oshadi va ish vaqtining 0,15 foizi yoki to'liq ish kuni ekvivalenti hisobida 22,6 ming ish o'rnini yo'qolishi prognoz qilingan. Bunda, qishloq xo'jaligi 0.36%, sanoat 0.12%, qurilish 0.36% va xizmat ko'rsatish 0.01% ish vaqtini yo'qotadi [22].

Bilvosita salbiy ta'sirlar:

- 1) iqtisodiy o'sishning sekinlashishi;
- 2) zaif mintaqalarda (masalan, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy) tashqi va ichki migratsiyaning kuchayishi;
- 3) aholi boshqa hududlarga ko'chib o'tish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ko'payishi;
- 4) energiya tanqisligining oshishi;
- 5) aholi real daromadlarining kamayishi;
- 6) aholi daromadlari o'rtasida tafovutning ortishi;
- 7) oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi;
- 8) oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlarni keltirib chiqarishi;
- 9) zaif hududlarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va bajariladigan ishlar tannarxining oshishi;
- 10) yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasining oshishi, suv tanqisligi hamda noqulay ob-havo oqibatida ishsizlikning oshishi va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Ayniqsa, O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari tendensiyalariga muvofiq holda iqtisodiy o'sish 3-7% miqdorida qisqarishiga sabab bo'ladi [23]. Bu esa boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

3. Iqtisodiyot tarmoqlari yoki hududlarning iqlim o'zgarishlariga sezgirligidan bo'yicha eng zaifli, zaif va kam zaifli toifalarga ajratish. Bunda, eng zaif hududlar sifatida Qoraqalpog'iston, Buxoro va Navoiy hududlarini, zaif hududlar sifatida esa qolgan boshqa viloyatlarni e'tirof etish. Masalan, iqlim o'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Panelning (IPCC) oltinchi baholash hisoboti (AR 6)da so'nggi o'n yilda zaif hududlarda ekstremal ob-havo hodisalari bilan bog'liq o'lim darajasi kamroq zaif hududlarga qaraganda 15 baravar yuqori ekanligi qayd etilgan [24]. O'zbekiston hududi iqlim o'zgarishlariga zaif hudud ekanligi tashvishli holatdir.

4. Iqlim o'zgarishining ta'sirining nafilligi bo'yicha foyda va zarar ko'ruvchi tarmoq va hududlarga ajratish. Yuqorida qayd etganimizdek, O'zbekiston sharoitida biror hududini iqlim o'zgarishlaridan foyda ko'ruvchi hudud sifatida tavsiflay olmaymiz. Qish faslida issiqlikka talabning nisbatan kamayishi hisobiga, faqat ushbu davrda energetika tarmog'i nisbatan foyda oluvchi tarmoq bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqi. 01.12.2023 yil. // <https://president.uz>.
2. WMO. Climate change and extreme weather impacts hit Asia hard. 23 April 2024 // <https://wmo.int/news/media-centre/climate-change-and-extreme-weather-impacts-hit-asia-hard>.
3. Tol. R. The economic effects of climate change // Journal of Economic Perspectives. 2009. Vol. 23. N 2.; Kahn M., Mohaddes K. and other. Long-Term Macroeconomic Effects of Climate Change: A Cross-Country Analysis. October 2019. IMF Working Paper, International Monetary Fund, Washington, DC.; Burke M., Solomon M. and other. Global non-linear effect of temperature on economic production. 12 January 2016; Kalkuhl M., Wenz L. The Impact of Climate Conditions on Economic Production. Evidence from a Global Panel of Regions // Journal of Environmental Economics and Management. 2020. Vol. 103.; Cruz J., Rossi-Hansberg E. "The Economic Geography of Global Warming," NBER Working Paper 28466, February 2021.; Kazakova M.V. Kolichestvennyye otsenki potentsialnykh makroekonomicheskikh posledstviy globalnogo izmeneniya klimata: chto govorit literatura // Upravlencheskoe konsultirovanie. 2020. № 10.; Jilina I.Yu. Ekonomicheskie posledstviya izmeneniya klimata. DOI: 10.31249/rsm/2020.03.04.
4. Desmet K, Kopp R. and other., Evaluating the Economic Cost of Coastal Flooding, NBER Working Paper 24918, August 2018, and American Economic Journal: Macroeconomics 13(2), April 2021, pp. 444–486; Juan-Carlos Ciscar and other. Physical and economic consequences of climate change in Europe. January 31, 2011. 108 (7), pp. 2678–2683.
5. Dasgupta Sh. and etc. Effects of climate change on combined labour productivity and supply: an empirical, multi-model study. VOLUME 5, ISSUE 7, E455-E465, July, 2021 DOI:[https://doi.org/10.1016/S2542-5196\(21\)00170-4](https://doi.org/10.1016/S2542-5196(21)00170-4); Zhao M. and other., Labour productivity and economic impacts of carbon mitigation: a modelling study and benefit-cost analysis. Lancet Planet Health. 2022 Dec. 6(12):e941-e948. doi: 10.1016/S2542-5196(22)00245-5. PMID: 36495888; Jessoe K., Manning D., Taylor, J. (2017). Climate Change and Labour Allocation in Rural Mexico: Evidence from Annual Fluctuations in Weather Short Title: Climate Change and Labour in Rural Mexico. The Economic Journal. Accepted. 10.1111/eoj.12448; Dawei Li, Jiacan Yuan and Robert E Kopp. Escalating global exposure to compound heat-humidity extremes with warming. Environmental Research Letters. 2020. 5 March. 17 p. // <https://iopscience.iop.org>.
6. Аженовский С.В. и др. Оценка влияния климата на экономические показатели монетарной политики: региональный подход // Regionologiya. 2023. №1 (122).; Mukherjee K., Ouattara B. Climate and Monetary Policy:

2 Working on a warmer planet: The impact of heat stress on labour productivity and decent work. International Labour Office – Geneva, ILO, 2019. – P. 69. ISBN 978-92-2-132967-1 (print) ISBN 978-92-2-132968-8



- Do Temperature Shocks Lead to Inflationary Pressures. *Climatic Change*. 2021; 167(3); Shnabel I. *Izmenenie klimata i denejno-kreditnaya politika // Finansy i razvitie*. 2021. Sentabr. S. 53–55.; Faccia D., Parker M., Stracca L. *Feeling the Heat: Extreme Temperatures and Price Stability*. Working paper No. 2626. Frankfurt am Main : European central bank, 2021.
7. Golub A., Lugovoy O., & Potashnikov V. (2019). Quantifying barriers to decarbonization of the Russian economy: real options analysis of investment risks in low-carbon technologies. *Climate Policy*, 19(6), pp. 716–724.; Bandt O., Jacolin L., Lemaire T. *Climate Change in Developing Countries: Global Warming Effects, Transmission Channels and Adaptation Policies*. Banque de France Working Paper No. 822. 2021. 68 p.
 8. James A. Tobey, *Economic issues in global climate change*, *Global Environmental Change*, Volume 2, Issue 3, 1992, – P. 215-228, ISSN 0959-3780, [https://doi.org/10.1016/0959-3780\(92\)90004-Q](https://doi.org/10.1016/0959-3780(92)90004-Q).
 9. Juan-Carlos Ciscar, Ana Iglesias, Luc Feyen, Antonio Soria. *Physical and economic consequences of climate change in Europe*. January 31, 2011. 108 (7), pp. 2678-2683 // <https://www.pnas.org/doi/full/10.1073/pnas.1011612108>.
 10. Harvey, Danny & Huang, Zhen. (1995). Evaluation of the Potential Impact of Methane Clathrate Destabilization on Future Global Warming. *Journal of Geophysical Research*. 100. pp. 2905-2926. 10.1029/94JD02829.
 11. Doran P., Zimmerman M. *Examining the Scientific Consensus on Climate Change // Eos, Transactions American Geophysical Union*. 2009. Vol. 90. № 3. P. 22–23.
 12. *Recommendations of the Task Force on Climate-related Financial Disclosures: Final Report*. –P. FSB-TCFD, June 2017. <https://assets.bbhub.io/company/sites/60/2021/10/FINAL-2017-TCFD-Report.pdf>.
 13. IPCC, 2023: Summary for Policymakers. In: *Climate Change 2023: Synthesis Report. Contribution of Working Groups I, II and III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change* [Core Writing Team, H. Lee and J. Romero (eds.)]. IPCC, Geneva, Switzerland, – P. 7., doi: 10.59327/IPCC/AR6-9789291691647.001.
 14. Макаров И.А. Глобальное изменение климата как вызов мировой экономике и экономической науке // *Экономический журнал ВШЭ*. 2013. №3.– С. 482. // <https://cyberleninka.ru/article/n/globalnoe-izmenenie-klimata-kak-vyzov-mirovoy-ekonomike-i-ekonomicheskoy-nauke>.
 15. Семенов С.М. и друг. Реакции систем на изменение климата: чувствительность, адаптационная способность, уязвимость и риск: Оценочный доклад об изменениях климата и их последствиях на территории Российской Федерации. Том 2, Последствия изменений климата. Москва, Росгидромет, 2008, ISBN 978-5-904206-07-9,– С. 11.
 16. Watson, Robert & Zinyowera & all, et. (1996). *Technologies, Policies and Measures for Mitigating Climate Change - IPCC Technical Paper-I*.
 17. Обзор доклада Николаса Стерна “Экономика изменения климата” Издание 2-ое, дополненное и переработанное / Кокорин А. О., Кураев С. Н. , Юлкин М. А. WWF, Strategic Programme Fund (SPF). – М.: WWF России, 2009. – С. 6.
 18. Jihad Azour, Hasan Dudu, Ling Zhu. *How the Middle East and Central Asia Can Better Address Climate Challenges*. November 29, 2023 // <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2023/11/29/how-the-middle-east-and-central-asia-can-better-address-climate-challenges>.
 19. Xiaojuan Hou, Xin Zhang, *Effects of temperature anomaly on health: A perspective from individual adaptation, Structural Change and Economic Dynamics*, Volume 68, 2024, Pages 62-74, ISSN 0954-349X, <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2023.10.007>.
 20. *This is what the climate crisis is costing economies around the world*. 29 November 2023. // <https://www.weforum.org/agenda/2023/11/climate-crisis-cost-global-economies>.
 21. <https://kun.uz/kr/news/2021/11/23/ozbekistonda-tabiiy-ofatlar-har-yili-ortacha-3-mlrd-dollariga-yaqin-zarar-yetkazi-shi-malum-qilindi>.
 22. *Working on a warmer planet: The impact of heat stress on labour productivity and decent work*. International Labour Office – Geneva, ILO, 2019. – P. 69. ISBN 978-92-2-132967-1 (print) ISBN 978-92-2-132968-8.
 23. Elov A.A. *Global iqlim o'zgarishining makroiqtisodiy ta'sirini baholashga oid qarashlar, IQTISODIYOT: TAHLILLAR VA PROGNOZLAR jurnali*, № 1 (25) Yanvar-Mart, 2024-yil, T: – B. 3-5.
 24. <https://www.who.int/ru>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

